

UO‘T: 633.51:631.542.25

G‘O‘ZA DEFOLIATSIYASINING BIRINCHI TERIM SALMOG‘I VA PAXTA HOSILIGA TA‘SIRI

Sultan Allanazarov q.x.f.f.d., k.i.x

Fozilov Lazizjon Odiljon o‘g‘li k.i.x.

Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot
instituti

Annotatsiya: Maqolada yangi Kalsiydef hamda DEF defoliantlarining S-6524 va Buxoro-10 g‘o‘za navlaridagi samaradorligi to‘g‘risida ma‘lumotlar keltirilgan. Ushbu defoliantlarning paxta hosiliga ijobiy ta‘sir etishi va 1-terim salmog‘ini oshirishi kuzatilgan.

Kalit so‘zlar: g‘o‘za, ko‘sak, chigit, defoliatsiya, nav, S-6524, Buxoro-10, Kalsiydef va DEF defoliantlari.

Mamlakatimiz jahonda paxtachilik bilan shug‘ullanadigan davlatlar ichida eng shimoliy mintaqada joylashib, bahor oylaridagi yomg‘irli kunlar, yozdagi jazirama issiq hamda kuz oylaridagi yog‘ingarchilikli va sovuq kunlarning erta boshlanishi ko‘sak ochilishi va paxta yig‘im terimiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shu sababdan respublikamizda ertaki va yuqori paxta hosilini yetishtirishda intensiv texnologiyalarni qo‘llash talab etiladi.

Shuning uchun ham ko‘saklar ochilishini tezlashtirish, paxta hosilini qisqa muddatlarda yig‘ishtirib olishda g‘o‘za defoliatsiyasi muhim ahamiyatga egadir. Bundan tashqari, mamalakatimizda paxta:g‘alla navbatlab ekish tizimida bug‘doy urug‘ini maqbul muddatlarda ekib, ertagi undirib olishda ham defoliatsiyaning ahamiyati yuqori hisoblanadi.

G‘o‘za defoliatsiyasi bo‘yicha o‘tgan asrning 60 yillaridan boshlab keng qamrovli izlanishlar olib borilgan. Binobarin, yirik olim A.I.Imomaliyev (1969) o‘z tadqiqotlariga asoslanib, defoliatsiya o‘z vaqtida sifatli o‘tkazilsa bu tadbir ko‘saklarning ochilishini tezlashtiradi va sifatli tola miqdorini oshirib, yetishtirilgan paxta hosilin erta muddatlarda yig‘ishtirib olish imkonini beradi deb xulosa qilgan [4; 307 b].

Shuningdek, Sh.Teshaevning ta’kidlashicha, g‘o‘za defoliatsiyasi barg to‘kilishini ta’minlash bilan birga, ko‘saklar ochilishini tezlashtirishi va birinchi terim salmog‘ini oshirishi evaziga sovuq va yog‘ingarchilik kunlarga qoldirmasdan yetishtirilgan hosilning asosiy qismini daladan terib olish imkonini yaratib, xom-ashyo sifatining sanoatbopligini ta’minlaydi [5; 349-354 b.].

G‘o‘zaga maqbul maqbul me‘yorlarda defoliantlarni qo‘llash orqali, g‘o‘za barglarining to‘kilishini 80-95% ga, ko‘saklar ochilishini 75-90% ga, birinchi terim hosilini 10-12 foizga, paxta hosilini gektariga 1,5-2,0 sentnerga oshirishga erishish mumkin [6; 14-15].

Bugungi kunda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan yuqori sifatli va ekologik bezarar bo‘lgan bir qancha defoliantlar yaratilgan bo‘lib, terim oldidan katta maydonlarga qo‘llanib kelinmoqda. Mana shunday yangi Kalsiydef va DEF defoliantlari sinovi yuzasidan Paxta seleksiyasi, urug‘chiligi va yetishtirish agrotexnologiyalari ilmiy-tadqiqot institutining markaziy tajriba xo‘jaligida tajribalar olib borildi.

Tadqiqotlar o‘rta tolali S-6524 va Buxoro-10 g‘o‘za navlarida Kalsiydef va DEF defoliantini uch xil me‘yorini nazorat (ishlov berilmagan), UzDEF va Avguron-ekstra defoliantlariga taqqoslab o‘rganildi. Tajriba 18 ta variant 3 qaytariqdan iborat bo‘lib, bitta variantning maydoni 48 m² ni tashkil etdi.

Dala tajribalari 2019-2021 yillar oralig‘ida, O‘zPITda qabul qilingan “Dala tajribalarini o‘tkazish uslublari” (2007) va «G‘o‘za defoliantlarini sinash bo‘yicha uslubiy ko‘rsatmalar» (2004) qo‘llanmalari asosida olib borildi. Olingan hosildorlik

ma'lumotlariga B.A.Dospexovning «Metodika polevogo opyta» (1979) qo'llanmasi asosida dispersion tahlil uslubida matematik ishlov berildi.

Ma'lumki, har qanday agrotexnik tadbirlarning (ekish muddati, yaganlash, ko'chat qalinligi, qator orasiga ishlov berish, o'g'itlash, sug'orish, defoliatsiya va boshqalar) samaradorligi paxta hosili va 1-terim salmog'i bilan o'lchanadi.

Bizning izlanishlarimizda, g'o'za navlarining biologik xususiyatlariga bog'liq holda defoliantlarni qo'llash me'yorlarining paxta hosiliga ta'siri o'rganilganda, bu defoliantlar ta'sir etish darajasiga ko'ra (yumshoq va qattiq) turlicha samaradorlikka ega bo'lganligi aniqlandi.

2020-yilda olib borilgan tadqiqot natijalariga ko'ra, S-6524 g'o'za naviga defoliantlar qo'llanilgan variantlarning nazoratida 1-terimda 31,2 s/ga (78,8%) paxta hosili terilgan bo'lsa, 2-terimda bu ko'rsatkichlar 8,4 s/ga va 21,2% ni tashkil qildi. UzDEF defolianti 8,0 l/ga me'yorda qo'llanilgan variantda 1-2 terimdagi paxta hosili 35,8; 4,8 s/ga ga teng bo'lib, terim salmoqlari 88,2; 11,8% ni tashkil etdi.

Kalsiydef (6,0 l/ga) defolianti qo'llanilgan variantda birinchi terim paxta hosili 36,8 s/ga (89,8%) ni, ikkinchi terim hosili 4,2 s/ga (10,2%) ni tashkil etdi. Bu nazoratdan 5,6 s/ga (11%) ga, UzDEF (8,0 l/ga) qo'llanilgan (2) variantdan 1,0 s/ga (1,6%) ga ko'p bo'ldi.

Eng yuqori natijalar DEF defolianti 0,200 l/ga me'yorda qo'llanilganda olinib, 1-terimda 37,2 s/ga hosil terib olinib, terim salmog'i 90,3% ga teng bo'ldi. Bu ko'rsatkichlar nazorat variantidan 6,0 s/ga (11,5%) ga ortiqchadir, bu esa paxta hosilini qisqa muddatlarda terib olish mumkinligidan dalolat beradi.

G'o'zaning Buxoro-10 navining umumiy paxta hosili qo'llanilgan defoliantlarning turlari va me'yorlaridan qat'iy nazar S-6524 naviga nisbatan 3,0-3,5 sentnerga kamroq bo'ldi, bu holat 1-terim salmog'ida ham o'z ifodasini topdi. Bu albatta navning o'ziga hos xususiyatlariga bog'liq farqlanishdir.

Chunonchi, Buxoro-10 navning nazorat variantida 1-terim salmog'i 26,2 s/ga yoki 72,4% ni tashkil etgan bo'lsa, UzDEF (8,0) va Avguron-ekstra (0,150)

qo'llanilgan variantlarda bu ko'rsatkichlar 30,7 s/ga (83,2%) va 31,0 s/ga (83,3%) ga teng bo'lganligi aniqlandi.

G'o'zaning bu navida Kalsiydef defoliantini 7,0 l/ga me'yori yaxshi samara berdi va 1-terim salmog'i 32,4 s/ga ni, foizdagi ulushi esa 86,4% ni tashkil etib, nazorat va andoza (UzDEF 8,0 l/ga) variantlariga nisbatan birinchi terim salmog'i 6,2 s/ga (14,0%) va 1,7 s/ga (3,2%) ga yuqori bo'ldi.

DEF defoliantining samaradorligi ham S-6524 navida qo'llanilgan me'yorga (0,200 l/ga) nisbatan ko'proq (0,250 l/ga) me'yorda qo'llanilgan variantda biroz yuqori bo'lganligi kuzatildi. Bu variantda 1-terim salmog'i 32,1 s/ga ni yoki 85,4% ni tashkil etib, nazorat variantiga nisbatan bu ko'rsatkich 5,9 s/ga (13,0%) ga yuqori ekanligi aniqlandi.

Yangi Kalsiydef va DEF defoliantlarini g'o'za navlaridagi samaradorligi bu navlarning barg yuzasiga bog'liq bo'lib, Buxoro-10 navining barg sathi S-6524 naviga nisbatan ko'proq ekanligi ma'lum bo'lgan edi. Bunda esa barg sathi yuzasi bilan defoliantlarni qo'llash me'yorlari orasida ham ijobiy korrelyatsion bog'lanish borligi kuzatildi.

FOYDALANGAN ADABIYOTLAR

1. Dala tajribalarini o'tkazish uslublari. Toshkent, 2007. – 147 b.
2. Dospexov B.A. Metodika polevogo opyta. – Moskva, 1985.– 416 s.
3. Defoliantlarni sinash bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar. – Toshkent: Davlat kimyo komissiyasi, 2004. – 12 b.
4. Imamaliyev A. I, Defolianty i ix fiziologicheskie deystviya na xlopchatnik. Tashkent. Izd. «Fan», 1969. 307 s
5. Teshayev Sh.J. Yangi mahalliy FanDEF, FanDEF-M va UzDEF-K defoliantlarning g'o'zadagi samaradorligi// G'o'za seleksiyasi, urug'chilikgi va yetishtirish agrotexnologiyalarining dolzarb muammolari hamda uni rivojlantirish istiqbollari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.–T . –B. 349-354.

6. Teshayev Sh. Defoliatsiya va tola xususiyatlari// O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi jurnali, 2006; №1. –B. 14-15.
7. Ubaydullayev Madamin Mo‘minovich, & Ne‘matova Feruzaxon Jamolxon Qizi. (2021). The Importance Of Planting And Processing Of Medium-Field Cotton Varieties Between Cotton Rows In Fergana Region . *The American Journal of Agriculture and Biomedical Engineering*, 3(09), 26–29. <https://doi.org/10.37547/tajabe/Volume03Issue09-05>
8. Ubaydullayev, M. M. (2021). G ‘o ‘zada defoliatsiya o ‘tkazishning maqbul me'yor va muddatlari. Monografiya.-Corresponding standards and terms of defliation of cotton. Monograph.-. Соответствующие нормы и сроки дефолиации хлопка. Монография. Zenodo.
9. Ubaydullayev Madaminjon Mo‘minjonovich, & Babayeva Malikakhon Nabijon qizi. (2022). Effectiveness Of Defoliant. *Eurasian Research Bulletin*, 8, 9–12. Retrieved from <https://www.geniusjournals.org/index.php/erb/article/view/1415>
10. Ubaydullaev, M. M. U., Askarov, K. K., & Mirzaikromov, M. A. U. Effectiveness of new defoliant. Theoretical & applied science Учредители: Теоретическая и прикладная наука,(12), 789-792.
11. M.M.Ubaydullayev, Ne‘matova F.J, & Marufjonov A. (2021). DETERMINATION OF EFFICIENCY OF DEFOLIATION IN MEDIUM-FIBER COTTON VARIETIES. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 9 (11), 95–98. Retrieved from <https://www.giirj.com/index.php/giirj/article/view/453>
12. Ubaydullaev M.M., & Komilov J.N. (2022). EFFECT OF DEFOLIANTS FOR MEDIUM FIBER COTTON. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(05), 1–5. <https://doi.org/10.37547/ijasr-02-05-01>
13. Ubaydullaev M.M., & Mahmutaliyev I.V. (2022). EFFECTIVENESS OF FOREIGN AND LOCAL DEFOLIANTS ON THE OPENING OF CUPS. *International Journal of Advance Scientific Research*, 2(05), 6–12. <https://doi.org/10.37547/ijasr-02-05-02>

14. Ubaydullaev M.M., & Makhmudova G.O. (2022). MEDIUM FIBER S-8290 AND S-6775 COTTON AGROTECHNICS OF SOWING VARIETIES. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(05), 49–54. <https://doi.org/10.55640/eijmrms-02-05-12>
15. Ubaydullaev M.M., & Sulstonov S.T. (2022). DEFOLIATION IS AN IMPORTANT MEASURE. *European International Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies*, 2(05), 44–48. <https://doi.org/10.55640/eijmrms-02-05-11>
16. Ubaydullaev, M. M. (2020). The importance of sowing and handling of c-8290 and c-6775 seeds in the conditions of the meadow soils of the Fergana area. In *International conference on multidisciplinary research* (p. 11).
17. Тешаев, Ф. Ж., & Убайдуллаев, М. М. (2020). Определение эффективных норм новых дефолиантов в условиях лугово-солончаковых почв Ферганской области при раскрытии коробочек 50-60% сортов хлопчатника с8290 и с6775. *Актуальные проблемы современной науки*, (5), 62-64.
18. Ubaydullaev M.M, & Nishonov I.A. (2022). The Benefits of Defoliation. *Eurasian Journal of Engineering and Technology*, 6, 102–105. Retrieved from <https://www.geniusjournals.org/index.php/ejet/article/view/1408>
19. [Ubaydullayev Madaminjon Mo‘minjon o‘g‘li, & Ma‘rufjonov Abdurahmon Mo‘sinjon o‘g‘li. \(2022\). BIOLOGICAL EFFICIENCY OF FOREIGN AND LOCAL DEFOLIANTS. "science and innovation" international scientific journal, 1\(2\). https://doi.org/10.5281/zenodo.6569808](https://doi.org/10.5281/zenodo.6569808)
20. Бекмирзаев, Ш., Саидмахамадов, Н., & Убайдуллаев, М. (2016). ПОЛУЧЕНИЯ ЛИТЬЕ В ПЕСЧАНО-ГЛИНИСТЫЕ МЕТОДОМ. Теория и практика современной науки, (6-1), 112-115.
21. Кодиров, З. З., Ирискулов, Ф. С., Пулатов, А., & Убайдуллаев, М. (2018). ELECTRONIC LIBRARIES AS A FACT OF CONTEMPORARY INFORMATION LANDSCAPE. *Экономика и социум*, (3), 629-633.

22. Ubaydullayev, Madaminjon Muminjonovich. (2021). G'o'zada defoliatsiya o'tkazishning maqbul me'yor va muddatlari. Monografiya. - Corresponding standards and terms of defliation of cotton. Monograph. - . Соответствующие нормы и сроки дефолиации хлопка. Монография. Zenodo.
<https://doi.org/10.5281/zenodo.5722721>

23. Aluminum-based composition materials for processing aluminum scrap
JM Usmonov, SM Shakirov, MM Ubaydullayev, SO Parmonov ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal 11 (8), 590-595.

